

SCIENCE
PROBLEMS.UZ

ISSN 2181-1342

Actual problems of social and humanitarian sciences
Актуальные проблемы социальных и гуманитарных наук

Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari

3-son (6-jild)

2026

SCIENCEPROBLEMS.UZ

IJTIMOIIY-GUMANITAR FANLARNING DOLZARB MUAMMOLARI

№ 3 (6) – 2026

АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО- ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

TOSHKENT-2026

BOSH MUHARRIR:

Isanova Feruza Tulqinovna

TAHRIR HAY'ATI:

07.00.00- TARIX FANLARI:

Yuldashev Anvar Ergashevich – tarix fanlari doktori, siyosiy fanlar nomzodi, professor;

Mavlanov Uktam Maxmasabirovich – tarix fanlari doktori, professor;

Xazratkulov Abror – tarix fanlari doktori, dotsent;

Tursunov Ravshan Normuratovich – tarix fanlari doktori;

Xolikulov Axmadjon Boymahmatovich – tarix fanlari doktori;

Gabrielyan Sofya Ivanovna – tarix fanlari doktori, dotsent;

Saidov Sarvar Atabullo o'g'li – katta ilmiy xodim, Imom Termiziy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi, ilmiy tadqiqotlar bo'limi.

08.00.00- IQTISODIYOT FANLARI:

Karlibayeva Raya Xojabayevna – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Nasirxodjayeva Dilafruz Sabitxanovna – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Ostonokulov Azamat Abdukarimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Arabov Nurali Uralovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Xudoyqulov Sadirdin Karimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent;

Azizov Sherzod O'ktamovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent;

Xojayev Azizxon Saidaloxonovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent

Xolov Aktam Xatamovich – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent;

Shadiyeva Dildora Xamidovna – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b.;

Shakarov Qulmat Ashirovich – iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.;

Jabborova Charos Aminovna - iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).

09.00.00- FALSAFA FANLARI:

Hakimov Nazar Hakimovich – falsafa fanlari doktori, professor;

Yaxshilikov Jo'raboy – falsafa fanlari doktori, professor;

G'aybullayev Otabek Muhammadiyevich – falsafa fanlari doktori, professor;

Saidova Kamola Uskanbayevna – falsafa fanlari doktori;

Hoshimxonov Mo'min – falsafa fanlari doktori, dotsent;

O'roqova Oysuluv Jamoliddinovna – falsafa fanlari doktori, dotsent;

Nosirxodjayeva Gulnora Abdukaxxarovna – falsafa fanlari nomzodi, dotsent;

Turdiyev Bexruz Sobirovich – falsafa fanlari doktori (DSc), Professor.

10.00.00- FILOLOGIYA FANLARI:

Axmedov Oybek Saporbayevich – filologiya fanlari doktori, professor;

Ko'chimov Shuxrat Norqizilovich – filologiya fanlari doktori, dotsent;

Hasanov Shavkat Ahadovich – filologiya fanlari doktori, professor;

Baxronova Dilrabo Keldiyorovna – filologiya fanlari doktori, professor;

Mirsanov G'aybullo Qulmurodovich – filologiya fanlari doktori, professor;

Salaxutdinova Musharraf Isamutdinovna – filologiya fanlari nomzodi, dotsent;

Kuchkarov Raxman Urmanovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent v/b;

Yunusov Mansur Abdullayevich – filologiya fanlari nomzodi;

Saidov Ulugbek Aripovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent;

Qodirova Muqaddas Tog'ayevna - filologiya fanlari nomzodi, dotsent.

12.00.00- YURIDIK FANLAR:

Axmedshayeva Mavlyuda Axatovna – yuridik fanlar doktori, professor;

Muxitdinova Firyuza Abdurashidovna – yuridik fanlar doktori, professor;

Esanova Zamira Normurotovna – yuridik fanlar doktori, professor, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan yurist;

Hamroqulov Bahodir Mamasharifovich – yuridik fanlar doktori, professor v.b.,;

Zulfiqorov Sherzod Xurramovich – yuridik fanlar doktori, professor;

Xayitov Xushvaqt Saparbayevich – yuridik fanlar doktori, professor;

Asadov Shavkat G'aybullayevich – yuridik fanlar doktori, dotsent;

Ergashev Ikrom Abdurasulovich – yuridik fanlari doktori, professor;

Utemuratov Maxmut Ajimuratovich – yuridik fanlar nomzodi, professor;

Saydullayev Shaxzod Alixanovich – yuridik fanlar nomzodi, professor;

Hakimov Komil Baxtiyarovich – yuridik fanlar doktori, dotsent;

Yusupov Sardorbek Baxodirovich – yuridik fanlar doktori, professor;

Amirov Zafar Aktamovich – yuridik fanlar doktori (PhD);

Jo'rayev Sherzod Yuldashevich – yuridik fanlar nomzodi, dotsent;

Babadjanov Atabek Davronbekovich – yuridik fanlar nomzodi, professor;

Normatov Bekzod Akrom o'g'li — yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori;

Rahmatov Elyor Jumaboyevich — yuridik fanlar nomzodi;

13.00.00- PEDAGOGIKA FANLARI:

Xashimova Dildarxon Urinboyevna – pedagogika fanlari doktori, professor;

Ibragimova Gulnora Xavazmatovna – pedagogika fanlari doktori, professor;

Zakirova Feruza Maxmudovna – pedagogika fanlari doktori;

Kayumova Nasiba Ashurovna – pedagogika fanlari doktori, professor;

Taylanova Shoxida Zayniyevna – pedagogika fanlari

doktori, dotsent;

Jumaniyozova Muhayyo Tojiyevna – pedagogika fanlari doktori, dotsent;

Ibraximov Sanjar Urunbayevich – pedagogika fanlari doktori;

Javliyeva Shaxnoza Baxodirovna – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD);

Bobomurotova Latofat Elmurodovna — pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).

19.00.00- PSIXOLOGIYA FANLARI:

Karimova Vasila Mamanosirovna – psixologiya fanlari doktori, professor, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti;

Hayitov Oybek Eshboyevich – Jismoniy tarbiya va sport bo'yicha mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti, psixologiya fanlari doktori, professor

Umarova Navbahor Shokirovna– psixologiya fanlari doktori, dotsent, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti, Amaliy psixologiyasi kafedrasini mudiri;

Atabayeva Nargis Batirovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent;

Shamshetova Anjim Karamaddinovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent;

Qodirov Obid Safarovich – psixologiya fanlari doktori (PhD).

22.00.00- SOTSIOLOGIYA FANLARI:

Latipova Nodira Muxtarjanovna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston milliy universiteti kafedra mudiri;

Seitov Azamat Po'latovich – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston milliy universiteti;

Sodiqova Shohida Marxaboyevna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi.

23.00.00- SIYOSIY FANLAR

Nazarov Nasriddin Ataqulovich –siyosiy fanlar doktori, falsafa fanlari doktori, professor, Toshkent arxitektura qurilish instituti;

Bo'tayev Usmonjon Xayrullayevich –siyosiy fanlar doktori, dotsent, O'zbekiston milliy universiteti kafedra mudiri.

OAK Ro'yxati

Mazkur jurnal Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi Rayosatining 2022-yil 30-noyabrdagi 327/5-son qarori bilan tarix, iqtisodiyot, falsafa, filologiya, yuridik va pedagogika fanlari bo'yicha ilmiy darajalar yuzasidan dissertatsiyalar asosiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

“Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari” elektron jurnali 2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan davlat ro'yxatiga olingan.

Muassis: “SCIENCEPROBLEMS TEAM” mas'uliyati cheklangan jamiyati

Tahririyat manzili:

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog'och ko'chasi, 70/10-uy. Elektron manzil:

scienceproblems.uz@gmail.com

Bog'lanish uchun telefon:

(99) 602-09-84 (telegram).

MUNDARIJA

07.00.00 – TARIX FANLARI

<i>Yusupov Shakir Xaitbayevich</i> AMIR TEMUR VA TEMURIYLAR DAVRIDA XORAZM SHAHARSOZLIK MADANIYATI TARAQQIYOTINING NATIJALARI	11-18
<i>Saparbaev Bunyod Khurrambek ogli</i> THE ART OF NEGOTIATION: KHIVA AND RUSSIA ENGAGEMENT UNDER MUHAMMAD RAHIMKHAN I (1806–1825)	19-28
<i>Tursunova Gavhar Begmurodovna</i> ROSSIYA IMPERIYASINING SIRDARYO VILOYATIGA AHOLINI KO'CHIRISHDA MAHALLIY AHOLINING QARSHILIK HARAKATLARI (1890–1916-YILLAR)	29-32
<i>Polvonov Kozimbek Naimovich, Baratov Otabek Aripovich</i> SHAHARLAR DEMOGRAFIYASI VA KLASSIFIKATSIYASIDAGI O'ZGARISHLAR (QASHQADARYO VILOYATI MISOLIDA)	33-40
<i>Сагатовна Зиёдахон Бахтияровна</i> МИГРАЦИОННЫЕ ПРОЦЕССЫ МЕЖДУ УЗБЕКИСТАНОМ И ТУРЦИЕЙ: ПРОБЛЕМЫ И ПЕРСПЕКТИВЫ	41-45
<i>Saidboboyeva Gulzora Nematjonovna</i> STATISTIK NASHRLAR VA ADABIYOTLARDA TURKISTONNI ELEKTRLASHTIRISH MASALASI (XX ASRNING 20–50-YILLARI)	46-51
<i>Shamshidinov Baxriddin Sharobiddin o'g'li</i> FARG'ONA VODIYSI AHOLISINING ETNIK TARKIBI, ETNOSLARNING JOYLASHUVI VA ETNODEMOGRAFIK XUSUSIYATLARI (XIX ASR — XXI ASR BOSHLARI)	52-56

08.00.00 – IQTISODIYOT FANLARI

<i>Xudayberganov Dilshod Tuxtabayevich, Achilova Firuza Kurbanovna</i> MINTAQA IQTISODIYOTIDA XIZMATLAR SOHASINI SAMARALI RIVOJLANTIRISH YO'NALISHLARI	57-67
<i>Султанова Дина Файзрахмановна</i> НАУЧНАЯ МЕТОДОЛОГИЯ ИНСТИТУЦИОНАЛЬНОГО МЕХАНИЗМА В ЭКОНОМИКЕ ОТРАСЛИ КОНЕВОДСТВА	68-72
<i>Xushvaqtov Jasur Shuhrat o'g'li</i> KO'CHMAS MULKNI HAYOTIY SIKL YONDASHUVI ASOSIDA OMMAVIY BAHOLASH METODOLOGIYASINI TAKOMILLASHTIRISH	73-82
<i>Jabbarov Nurbek Atanazarovich</i> O'ZBEKISTON SANOATIGA ENERGIYA RESURSLARINING TA'SIRINI BAHOLASHNING NAZARIY ASOSLARI	83-88

09.00.00 – FALSAFA FANLARI

<i>Zaripova Hulkar Toxir qizi</i> O'ZBEKISTONDAGI TARIXIY-MADANIY JARAYONLARDA MARGINAL QATLAMLARNING O'RNI	89-95
---	-------

<i>Abdullayeva Saodat Nurillo qizi</i> PAZANDACHILIK MADANIYATI VA SALOMATLIK FALSAFASI: VOZEHNING “KONI LAZZAT XONI NE’MAT” ASARIDA TAOMLARNING TIZIMLASHTIRILISHI	96-99
<i>Rajabov Behruz Baxshillayevich</i> TINCHLIK VA HAMKORLIKNING FALSAFIY MOHIYATI HAMDA ZAMONAVIY JAMIYAT TARAQQIYOTIDAGI O’RNI.....	100-104
<i>Artigova Adolat Ataboyevna</i> MAHMUD AZ-ZAMAXSHARIYNING “AL-KASHSHAF” ASARI VA UNING TARIXIY AHAMIYATI	105-109
<i>Umarova Feruza</i> MAFKURAVIY TAHDIDLARGA QARSHI KURASHDA DIN VA DAVLAT MUNOSABATLARI TAHLILI	110-116
<i>Djalalova Nigora Xusanovna</i> IJTIMOIY-MADANIY TEXNOLOGIYALARNI O’RGANISHDA RAQAMLI ONG KONSEPSIYASI	117-120
<i>Ходжиметов Шахрух Русланбекович</i> ЭМИГРАЦИОННЫЕ И ИММИГРАЦИОННЫЕ ПРОЦЕССЫ ВЛИЯНИЕ НА СТАБИЛЬНОСТЬ ОБЩЕСТВА	121-124
<i>Islamova Gulzamon Madiyevna</i> JADIDLAR DAVRIDA TA’LIM TIZIMIDAGI ISLOHOTLARNING FALSAFIY ASOSLARI.....	125-130
<i>Uraqov Nodirbek Boboqulovich</i> HECI KONSEPSIYASI VA MAHDUMI A’ZAM MEROSI: BAG’RIKENGLIK, AKSIOLOGIK MUSHTARAKLIK, METODOLOGIK TAFOVUT, UMUMIY NUQTALAR VA FARQLAR HAMDA AGRAR TA’LIMDA INSONPARVARLIK G’OYALARINI INTEGRATSIYA QILISH MASALASI.....	131-136
10.00.00 – FILOLOGIYA FANLARI	
<i>Baydjanova Iroda Abdullayevna</i> TARJIMADA HAZIL-MUTOYIBA KONSEPTINING SAQLANISHI MUAMMOLARI: “SHUM BOLA” ASARINING O’ZBEK, INGLIZ VA RUS TILLARIDAGI TARJIMALARI MISOLIDA	137-143
<i>Imomiddinova Nargiza</i> ASL XITOYCHA HARBIY TERMINLARNING SHAKLLANISHI VA RIVOJLANISHI	144-154
<i>Sobirov Anvar Kuvandikovich</i> JONLI SO’ZLASHUV NUTQIDA SO’Z TARTIBINING LINGVOPOETIK VA LINGVOPRAGMATIK XUSUSIYATLARI	155-159
<i>Азизова Насиба Бахритдиновна</i> ЯЗЫКОВАЯ ЛИЧНОСТЬ КАК КУЛЬТУРНЫЙ КОНЦЕПТ: РЕКОНСТРУКЦИЯ ИДЕЙ АЛИШЕРА НАВАИ И ИХ РЕЛЕВАНТНОСТЬ ДЛЯ СОВРЕМЕННОЙ ЛИНГВОКУЛЬТУРОЛОГИИ.....	160-168
<i>Ishankulova Diyora Allovidinovna</i> UMAR XAYYOM SHE’RIYATINING G’OYAVIY-MAZMUNII MOHIYATI VA ULARNING TARJIMADAGI TALQINI	169-174

<i>Olimjon Jalilov Muxidinovich</i> INGLIZ VA O'ZBEK EPOSARIDA LINGVISTIK MODELLARNING QIYOSIY XUSUSIYATLARI	175-178
<i>Achilova Zuxra Qurbonovna</i> "MALLA SAVDOGAR" DOSTONI VARIANTLARIDA BAXSHIYONA JANG POLOTNOSI VA PEYZAJ ESKIZLARI	179-184
<i>Orazgalieva Ayjamal Marat qizi</i> SYNONYMIC AND PRAGMATIC VERBALISATION OF CHILD/BALA IN ENGLISH AND KARAKALPAK LEXICOGRAPHY	185-192
<i>Babayeva Irada Sabirovna</i> LINGUOCULTUROLOGICAL APPROACH TO THE STUDY OF EMPATHIC COMMUNICATION	193-198
<i>Тоштемурова Фарангиз Шухратовна</i> РАЗВИТИЕ СЛОВАРНОГО СОСТАВА СОВРЕМЕННОГО РУССКОГО ЯЗЫКА И РОЛЬ СЛОВООБРАЗОВАНИЯ В ЕГО ОБОГАЩЕНИИ	199-202

12.00.00 – YURIDIK FANLAR

<i>Utemuratova Sapargul Shamshetovna</i> EKOLOGIYA SOHASIDAGI JINOYATLARDA MAXSUS SUBYEKT TUSHUNCHASI VA MANSABDOR SHAXSLARNING JINOIY JAVOBGARLIGI	203-207
<i>Qilichev Xayrulla Mamatovich</i> FUQAROLARNING O'ZINI O'ZI BOSHQARISH ORGANLARINING DAVLAT XUSUSIY SHERIKLIK BITIMIDA ISHTIROK ETISHINING O'ZIGA XOS JIHATLARI	208-217
<i>Бурханова Шийрин Жамшитовна</i> ГОСУДАРСТВЕННАЯ ПРАВОВАЯ ПОЛИТИКА И НОРМОТВОРЧЕСТВО: ВЗАИМОСВЯЗЬ И ОСОБЕННОСТИ РАЗВИТИЯ	218-223
<i>Akayeva Marapat Abduhalikovna</i> GENDER TENGLIGINI TA'MINLASHDA HUQUQIY SIYOSAT: O'ZBEKISTON TAJRIBASINING TAHLILI.....	224-232
<i>Chuboyeva Ozodaxon Quvonbekovna</i> XOTIN-QIZLARNING JAMIYAT IJTIMOIIY-SIYOSIY HAYOTIDAGI O'RNI	233-240
<i>Хидоятлов Бахтиер Батырович, Парахатова Шахноза Ерназаровна</i> ПРОЦЕССУАЛЬНЫЕ АСПЕКТЫ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ СПЕЦИАЛЬНЫХ ЗНАНИЙ В ПОЛУЧЕНИИ ОБРАЗЦОВ ДЛЯ ЭКСПЕРТНОГО ИССЛЕДОВАНИЯ В УГОЛОВНОМ ПРОЦЕССЕ	241-250
<i>Dadaboyeva Jumagul Anvarovna, Habibullayev Muhammadrajab Obidjonov</i> JAHON HAMJAMIYATINING GENDER TENGLIGINI TA'MINLASHGA QARATAYOTGAN E'TIBORI	251-256
<i>Абдулжаппоров Шахбоз Музаффар ўғли</i> МОБИЛЬНОЕ БАНКОВСКОЕ МОШЕННИЧЕСТВО: УГРОЗЫ, МЕХАНИЗМЫ СОВЕРШЕНИЯ И КОМПЛЕКСНЫЕ МЕРЫ ПРОТИВОДЕЙСТВИЯ	257-267
<i>Nasridinov Yigitali Borataliyevich</i> XOTIN-QIZLARNI TAZYIQ VA ZO'RAVONLIKDAN HIMOYA QILISH SOHASIDA DAVLAT SIYOSATI VA HUQUQIY ASOSLAR	268-276

<i>Mirzakarimova Dilafruz Doniyorjon qizi</i> SUN'YI INTELLEKT YORDAMIDA KIBERHUJUMLARNI ANIQLASH VA OLDINI OLISH	277-281
<i>Mamatmurodov Farrux Farxod o'g'li</i> O'ZBEKISTON KAPITAL BOZORINI RIVOJLANTIRISHDA SUKUK INSTRUMENTLARINING INSTITUTSIONAL ROLI	282-289
<i>Нодирбекова Дилдона Абдумалик кизи</i> КОНСТИТУЦИОННЫЕ ОСНОВЫ ПРАВА НА ДОСТУП К ЭКОЛОГИЧЕСКОЙ ИНФОРМАЦИИ И ПРАВОВОЙ АНАЛИЗ АДМИНИСТРАТИВНОЙ ПРАКТИКИ	290-297
<i>Ahmadjonov Sultonbek Shukurillo o'g'li</i> QALBAKI PUL, AKSIZ MARKASI YOKI QIMMATLI QOG'OZLAR YASASH VA ULARNI O'TKAZISH JINOYATINING AYRIM JINOIY-HUQUQIY JIHATLARI	298-307
<i>Отлубаева Айгуль Бахрамовна</i> КЛАССИФИКАЦИЯ АДМИНИСТРАТИВНЫХ ЭКОЛОГИЧЕСКИХ ПРАВОНАРУШЕНИЙ В ЗАКОНОДАТЕЛЬСТВЕ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН: СРАВНИТЕЛЬНО-ПРАВОВОЙ АНАЛИЗ С ОПЫТОМ РЕСПУБЛИКИ КАЗАХСТАН	308-316
<i>Mukimbayev Otabek Sattarovich</i> GUVOHNING MAQOMINI HUQUQIY HIMOYALASHDA KONSEPTUAL YONDASHUVLAR.....	317-324
<i>Yakubov Mirzaxid Turabayevich</i> NORMATIV-HUQUQIY Hujjatlar ijrosini ta'minlashning Xorijiy modellari va milliy amaliyot uchun xulosalar	325-333
13.00.00 – PEDAGOGIKA FANLARI	
<i>Jumaniyozova Muhayyo Tojiyevna</i> RAQAMLI TA'LIMDA KREATIV KOMPETENTLIKNI RIVOJLANTIRISHNING DIDAKTIK TALABLARI.....	334-338
<i>Raxmatullaev Dilmurod Raxmatullayevich</i> PROFESSIONAL TA'LIM TIZIMINI RIVOJLANTIRISH VA BO'LAJAK MUTAXASSISLARINING KASBIY KOMPETENSIYALARINI SHAKLLANTIRISHDA STRATEGIK YONDASHUVNING KONSEPTUAL ASOSLARI.....	339-348
<i>Yusupova Kamola Nuriddinovna</i> NEYROPEDAGOGIKA TA'LIM TIZIMINING YANGI ILMIY TARMOG'I SIFATIDA.....	349-353
<i>Umurzoqov Baxtiyor Boxodirovich</i> ZAMONAVIY SHAROITDA HARBIY KADRLAR BOSHQARUVI TIZIMI SAMARADORLIGINING ILMIY-AMALIY ASOSLARI.....	354-358
<i>Qobilova Nilufar Xudoyshukurovna, Xujamova Dilobar Berdiyevna</i> OLIY PEDAGOGIK TA'LIM MUASSASALARIDA BO'LAJAK O'QITUVCHILARNING SHAXSIY VA KASBIY KONGRUENTLIGINI LOYIHAVIY YONDASHUV ASOSIDA RIVOJLANTIRISH MAZMUNI.....	359-366
<i>Xaitbayeva Durdona Zokirjon qizi</i> SUN'YI INTELLEKT ASOSIDAGI ADAPTIV RAQAMLI TA'LIM TIZIMINI LOYIHALASHNING NAZARIY-METODIK ASOSLARI	367-371

<i>Исмаилов Шухрат Абдусоат угли, Инназаров Маджид Амонович</i> МЕХАНИЗМЫ ВНЕДРЕНИЯ МОДЕЛИ ФИНАНСИРОВАНИЯ, ОСНОВАННОГО НА РЕЗУЛЬТАТАХ (PERFORMANCE-BASED FUNDING), В ПРОФЕССИОНАЛЬНОМ РАЗВИТИИ РУКОВОДЯЩИХ КАДРОВ ВЫСШИХ УЧЕБНЫХ ЗАВЕДЕНИЙ	372-378
<i>Rakhmatova Madina Abdumumin kizi</i> IMPLEMENTATION OF PROGRAMS FOR AUTOMATIC DETECTION AND CORRECTION OF GRAMMATICAL ERRORS IN ENGLISH WRITING.....	379-384
<i>To'rayev Azamat Maqsudovich</i> TALABALARNING ILMIY-TADQIQOTCHILIK KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISHDA BO'SH VAQTNI TASHKIL ETISHNING RAQAMLI METODIKASI	385-390
<i>Mahmudova Farangiz Qurbonboy qizi</i> STUDENTS' ATTITUDES TOWARD AI USE IN ENGLISH LANGUAGE LEARNING: HELP OR HINDRANCE?	391-399
<i>Burxonova Muxlisa Murtoz qizi</i> O'QISH SAVODXONLIGI DARSLIKLARIDAGI BADIY MATNLARNI O'QITISH ORQALI O'QUVCHILARDA 4K KO'NIKMALARINI SHAKLLANTIRISH	400-404

Received: 16 February 2026

Accepted: 01 March 2026

Published: 15 March 2026

Article / Original Paper

SCIENTIFIC AND PRACTICAL FOUNDATIONS FOR ENHANCING THE EFFECTIVENESS OF THE MILITARY PERSONNEL MANAGEMENT SYSTEM IN MODERN CONDITIONS

Umurzoqov Bakhtiyor Bokhadirovich

Senior Instructor of the Combat Training Cycle of the Institute of Increasing qualifications of the Ministry of Internal Affairs, Lieutenant colonel

Abstract. This scientific article analyzes the scientific and practical foundations for improving the effectiveness of the military personnel management system in modern conditions. It highlights the current issues in the selection, training, placement, and retention of military personnel and substantiates ways to improve these processes. Additionally, based on foreign experience, the importance of a meritocratic approach, an open competition system, and mechanisms for ensuring personnel stability is demonstrated.

Keywords: military personnel, management, military education, meritocracy, personnel policy, service efficiency, personnel stability, foreign experience, work-life balance.

ZAMONAVIY SHAROITDA HARBIY KADRLAR BOSHQARUVI TIZIMI SAMARADORLIGINING ILMIY-AMALIY ASOSLARI

Umurzoqov Baxtiyor Boxodirovich

IIV Malaka oshirish instituti,

Jangovar tayyorgarlik sikli katta o'qituvchisi, podpolkovnik

Annotatsiya. Mazkur ilmiy maqolada zamonaviy sharoitda harbiy kadrlar boshqaruvi tizimining samaradorligini oshirishning ilmiy-amaliy asoslari tahlil qilingan. Harbiy kadrlarni tanlash, tayyorlash, joylashtirish va xizmatda ushlab qolish jarayonlarining dolzarb muammolari yoritilib, ularni takomillashtirish yo'llari asoslab berilgan. Shuningdek, xorijiy tajribalar misolida meritokratik yondashuv, ochiq tanlov tizimi va kadrlar barqarorligini ta'minlash mexanizmlarining ahamiyati ko'rsatib o'tilgan.

Kalit so'zlar: harbiy kadrlar, boshqaruv, harbiy ta'lim, meritokratiya, kadrlar siyosati, xizmat samaradorligi, kadrlar barqarorligi, xorijiy tajriba, ish-hayot muvozanati.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V6I3Y2026N51>

Kirish. Mamlakatimiz mustaqilligini yanada mustahkamlash, xalqimizning tinch va osoyishta hayotini, sarhadlarimiz daxlsizligini ishonchli himoya qilish maqsadida sohada keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Harbiy qismlarning eshiklari xalq uchun, bo'lajak Vatan posbonlari — yosh avlod uchun keng ochilgan. Istiqlof g'oyalariga sadoqatli, vatanparvar harbiy kadrlar safi muttasil ravishda kengayib borayotganligi quvonarlidir. Zero, xalqimiz harbiylarimiz timsolida Vatanni himoya qilishdek dunyodagi eng ulug' vazifani sharaf bilan ado etib, Jaloliddin Manguberdi, Amir Temur, Bobur Mirzo singari buyuk ajdodlarimizning shonli an'alarini munosib davom ettirib kelayotgan yurtimizning chinakam qalqonlarini ko'radi [1].

Zamonaviy globallashtirish jarayonlari, harbiy-siyosiy vaziyatning keskin va tez o'zgarishi, harbiy sohada axborot-kommunikatsion texnologiyalarining jadal rivojlanishi hamda

xavfsizlikka nisbatan yangi tahdidlarning yuzaga kelishi esa harbiy boshqaruv tizimlarini tubdan takomillashtirish zaruratini yuzaga keltirmoqda. Bugungi kunda Qurolli Kuchlarimizning jangovar shayligi, safarbarlik salohiyati va strategik barqarorligi ko'p jihatdan inson kapitaliga, ya'ni harbiy kadrlarni tanlash, joylashtirish, tayyorlash va xizmat faoliyatini boshqarish tizimining samaradorligiga bog'liqdir. Shu ma'noda, harbiy kadrlar boshqaruvi oddiy tashkiliy-amaliy jarayon emas, balki chuqur ilmiy yondashuvni talab etadigan murakkab ijtimoiy-boshqaruv mexanizmi sifatida namoyon bo'ladi.

Harbiy kadrlar boshqaruvi tizimining samaradorligi strategik rejalashtirishning aniqligi, kompetensiyaga asoslangan baholash mexanizmlarining joriy etilishi, xizmat bo'yicha o'sishning shaffofligi hamda ma'naviy-ruhiy barqarorlikni ta'minlash darajasi bilan belgilanadi. Zamonaviy sharoitda kadrlar bilan ishlash faqat shaxsiy tarkib hisobini yuritish yoki buyruqlarni rasmiylashtirish bilan cheklanib qolmasdan, balki tahliliy prognozlash, salohiyatni aniqlash, liderlik fazilatlarini shakllantirish, sohadagi muammolarga tahliliy-sotsiologik yondashish va institutsional barqarorlikni mustahkamlashga qaratilgan kompleks faoliyatni o'z ichiga olishi zarur. Ushbu yo'nalishlarni takomillashtirish maqsadida Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev tomonidan "O'zbekiston armiyasi xalq himoyasiga doimo tayyor turishi kerak" deya, ta'kidlandi va harbiy xavfsizlik va mudofaani kuchaytirish bo'yicha muhim vazifalar belgilandi [2]. Albatta, mazkur vazifalarni ijro etish uchun ilmiy-amaliy yondashuv zarurligi, tizimni strukturaviy va funksional jihatdan tahlil qilish, uning samaradorlik mezonlarini aniqlash, mavjud muammolarni kompleks baholash hamda ilg'or xorijiy tajribalarni milliy sharoitga moslashtirish lozim.

Shu munosabat bilan zamonaviy sharoitda harbiy kadrlar boshqaruvi tizimi samaradorligining ilmiy-amaliy asoslari kompleks yondashuv asosida tahlil qilinib, uning nazariy asosi, tashkiliy-huquqiy mexanizmlari hamda amaliyotdagi dolzarb muammolar o'rganilishi va tizim samaradorligini oshirishga qaratilgan tahliliy tadqiqotlar olib borilishi muhim ahamiyat kasb etadi.

Metodologiya va adabiyotlar. Mazkur ilmiy maqolani yaratish jarayonida tizimli, qiyosiy-tahliliy, mantiqiy umumlashtirish hamda empirik kuzatuv usullaridan foydalanildi. Harbiy kadrlar boshqaruvi tizimining samaradorligini baholashda milliy normativ-huquqiy hujjatlar, harbiy ta'lim va kadrlar siyosatiga oid ilmiy tadqiqotlar, mahalliy va xorijiy olimlarning ilmiy qarashlari hamda rivojlangan davlatlar harbiy tuzilmalari tajribasi tahlil qilindi. Shuningdek, harbiy kadrlarni tanlash, tayyorlash, lavozimga tayinlash va xizmatda ushlab qolish jarayonlariga oid ilmiy maqolalar, elektron manbalar va amaliy tajribalar o'rganildi.

Muhokama. Yangi O'zbekiston armiyasida bugungi kunda bo'lajak ofitserlarda ma'naviy-madaniy, axloqiy-ruhiy tayyorgarlik tizimini tubdan isloh qilishga alohida e'tibor qaratilib, bo'lajak ofitserlarning jahon andozalari darajasida zamonaviy bilim egallashi, ma'nan-axloqan, jismonan yetuk insonlar bo'lib ulg'ayishi, harbiy xizmatchilar qalbida Vatanga sadoqat, fidoyilik tuyg'ularini yanada yuksaltirish borasida O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha ustuvor vazifalar belgilangan [3]. Ushbu vazifalarning samarali bajarilishida O'zbekiston Respublikasi harbiy xavfsizlik va mudofaa universiteti hamda mazkur universitet tarkibidagi oliy harbiy ta'lim muassasalari, xususan, Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va aloqa harbiy instituti, Quruqlikdagi qo'shinlar instituti, Harbiy aviatsiya instituti, Harbiy tibbiyot instituti, shuningdek, Qurolli Kuchlar tarkibidagi Oliy ta'lim

muassasalari, Samarqand Serjantlar tayyorlash oliy maktabi, “Temurbeklar maktabi” harbiy-akademik litseyi va boshqa ixtisoslashtirilgan ta’lim muassasalari ijobiy natijalarni namoyon etmoqda.

Albatta, hozirda ushbu jarayonlarga oid ilmiy va ilmiy ommabop adabiyotlarda “harbiy kadr”, “ofitserlarni tayyorlash”, tushunchalariga oid turlicha sharhlar berib kelinmoqda. Mutaxassis B. Karimovning fikricha, buning asosiy sabablaridan biri bu Qurolli Kuchlar tarkibiga yetuk, professional ofitserlarni yetkazib berishga bo’lgan ehtiyojni o’sib borishi bo’lsa, ikkinchidan, rahbariyat tomonidan ushbu yo’nalishni rivojlantirishga bo’lgan sa’y-harakatlarni amalga oshirishga bo’lgan tashabbuslarning ortib borishidir [4].

Mazkur yo’nalishni tahlil qilishni davom ettiradigan bo’lsak, tadqiqotchi Sh.Zoxidov ofitserlarning kasbiy sifatleri va professiogrammasini ishlab chiqish muammosi hozirgacha ilmiy tadqiq etilmaganligi lekin bir qator tematik mavzuvii ishlar bajarilganligini e’tirof etgan va shuning uchun OHTM (Oliy harbiy ta’lim muassasalari) kadrlarni tayyorlashga doir turli davlatlarning tajribasini o’rganish va ahamiyatliiligini belgilash, milliy mudofaani ta’minlash uchun xizmat qilishini ta’kidlagan [5].

S.Isakov va Sh.To’rayev kabi olimlar tomonidan esa zamonaviy talablarga javob berish uchun harbiy xizmatchilar o’zlarini doimiy ravishda rivojlantirishlari, yangi texnologiyalarni o’zlashtirishlari va global xavfsizlik muhiti o’zgarishlariga moslashishlari kerakligi, bu talablar harbiy xizmatning muvaffaqiyatli amalga oshirilishi uchun muhimligi xususida so’z yuritilgan [6].

Olim Z.Alimardonov esa “Harbiy kadr o’z kasbini bilish chegaralarini insoniyatning umumiy madaniyati boyligi talablari asosida kengaytirishga, ijodiy vazifasini yechishga, tanlagan mutaxassisligining ko’nikma va mahoratini chuqur egallashga intiladi. Harbiy kadrlar professionalizmi, xizmatning sarmahsulligi bo’lib qolmay, balki harbiy kadrlarni xizmatga bo’lgan shaxsiy munosabati, ruhiy holatining mavjudligi hamdir” degan, fikrni bildirgan [7].

Shuningdek, rus mutaxassisi Kudryavsev Y. tomonidan “Professional harbiy kadr kasbiga doir bazaviy komponentlarni mukammal o’zlashtirib, uni qo’llay bilish ko’nikmasiga ega bo’lib, harbiy xizmat faoliyatida o’zining o’rnini topib, harbiy jamoada obro’li mutaxassis ekanligini namoyish etishi lozimdir”, deya, o’z fikrini ifoda etgan [8].

Yuqorida keltirilgan ilmiy qarashlarni umumlashtirgan holda aytish mumkinki, zamonaviy harbiy ta’lim tizimida ofitser kadrlarni tayyorlash jarayoni faqat kasbiy bilim va amaliy ko’nikmalarni shakllantirish bilan cheklanmaydi, balki uning ma’naviy-axloqiy yetukligi, professional kompetentligini doimiy rivojlantirishga tayyorligi, innovatsion texnologiyalarni o’zlashtira olish qobiliyati hamda xizmatga ongli va mas’uliyatli munosabatini ta’minlashni ham o’z ichiga oladi. Tadqiqotchilar tomonidan ilgari surilgan fikrlar shuni ko’rsatadiki, bugungi kunda harbiy kadrlar tayyorlash tizimi kompleks, ko’p omilli va uzluksiz takomillashtirib boriladigan jarayon sifatida qaralishi lozim bo’lib, u milliy mudofaa manfaatlari, xalqaro tajriba va zamonaviy xavfsizlik muhiti talablariga mos ravishda rivojlantirilishi zarur.

Shu bilan birga, hozirda milliy armiyamiz muhitiga global o’zgarishlar o’zining ham ijobiy ham salbiy ta’sirini ko’rsatmoqda. Ijobiy ta’sirlarni misol qilgan holda, harbiy sohadagi ilg’or tajribalar bo’yicha bilim va ko’nikmaning takomillashuvini keltirsak, salbiy ta’sirga Yevropa va boshqa rivojlangan davlatlardagi zamonaviy “ish-hayot muvozanati (work-life balance)” kabi tendensiyalarni misol qilishimiz mumkin. Xususan, Norvegiya Qirolligi armiyasida ham xuddi shunday holatlar ko’p kuzatilganligini guvohi bo’lishimiz mumkin [9]

Bilamizki, harbiy xizmat zarurati taqozo etsa, harbiy xizmatchilar kunlik ish soatidan ko'proq ishlashini keltirib chiqarishi mumkin. Hozirda yosh kadrlar tomonidan esa harbiy xizmat sababli shaxsiy hayotiga kamroq vaqt qolishini his etib, yoki boshqa cheklovlarga bo'lgan toqatsizligi sababli xizmatni erta tark etish holatlari ko'plab kuzatilmoqda. Natijada, yosh harbiy kadrlarni tayyorlashga ketgan vaqt va mablag' o'zini oqlayapti, deb ayta olmaymiz. Bu kadrlarni tayyorlash va boshqarish sohasidagi jiddiy muammolardan biri deb bilamiz.

Shuningdek, hozirda harbiy kadrlarni boshqarishda va lavozimlarga tayinlashda meritokratik tamoyillarga asoslangan holda emas, balki shaxsiy ishonch hisobiga amalga oshirilayotganligini ko'rishimiz mumkin. Meritokratiya [10] tamoyilining afzalligi shunda iboratki, lavozim uchun eng munosib va qobiliyatli shaxslar uchun imkoniyat ortadi va ularning kasbiy fazilatlarini hamda alohida xizmatlariga adolatli hamda obyektiv baho berish asosida lavozimlarga tayinlanadi. Bu esa o'z navbatida, harbiy xizmat samaradorligiga ulkan hissa qo'shadi. Mazkur islohot bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 3-oktyabrdagi "O'zbekiston Respublikasida kadrlar siyosati va davlat xizmati tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5843-son Farmoni imzolangan. Biroq, bu masalada ijrochilik boshlang'ich darajada ekanligini qayd etishimiz mumkin [11]. Shu munosabat bilan yuqorida keltirilgan muammolarni hal etishda xorijiy ilg'or tajribalarning milliy amaliyotimizda qo'llanilishi mavjud tashkiliy bo'shliqni to'ldirishda o'zining munosib hissasini qo'shadi.

Natija. Niderlandiya Qirolligi politsiya tizimida kadrlar boshqaruvi bo'sh ish o'rinlarini avvalo ichki elektron platformada e'lon qilish va nomzodlarning o'z tashabbusi bilan ariza topshirish mexanizmiga asoslanadi. Ichki tanlov natija bermagan taqdirdagina, bo'sh ish o'rinlari tashqi mehnat bozoriga chiqariladi [12]. Hozirda O'zbekistondagi amaldagi holat shuni ko'rsatmoqdaki, bo'sh ish o'rinlarini tashqi mehnat bozoriga chiqarish amaliyoti mavjud. Faqatgina, Qurolli Kuchlar tarkibiy tuzilmalarida endi xizmatni boshlamoqchi bo'lgan nomzodlar uchungina amal qiladi. Haqiqiy harbiy xizmatni o'tayotgan va lavozim o'sishiga intilayotganlar uchun esa rahbarlik darajasidagi lavozimlarga tayinlash uchun ichki elektron platformada e'lon qilish imkoniyati yaratilmagan. Fikrimizcha, ushbu Niderlandiya politsiyasi tajribasining milliy armiyamiz tizimida qo'llanilishi tayinlanadigan harbiy kadrlarning yanada sifatliqligini ta'minlab beradi va harbiy kadrlar boshqaruvi siyosatini yanada yuqori darajaga ko'taradi.

Shuningdek, Norvegiya Qirolligi armiyasi tizimida *kadrlarni ushlab qolish* masalasi rahbariyatning diqqat markazida turadi va bu harbiy kadrlar boshqaruvi tizimi uchun juda muhim jarayon hisoblanadi. Ilmiy tahlillar shuni ko'rsatadiki, Norvegiya armiyasida harbiy xizmatchilar xizmatni tark etish niyati asosiy kadrlar boshqaruvi muammolaridan biri sifatida o'rganilgan. Tadqiqotda karyera istiqbollari, ish-hayot muvozanati xizmatni tark etish ehtimolini kamaytirishga yordam beruvchi omillar sifatida aniqlangan. Bu shuni anglatadiki, Norvegiya harbiy kadrlar boshqaruvi tizimi shaxslarning xizmatda qolish istagini o'lchash va tahlil qilish bilan shug'ullanadi. Ular xizmat sharoitini yaxshilash yo'llarini izlab, xizmatni tark etish maqsadini kamaytirishga urinadi. O'zbekiston armiyasida esa xizmatni tark etish maqsadidagi harbiy xizmatchilar bilan faqatgina tarbiyaviy ishlar bo'yicha mas'ullar tomonidan og'zaki muloqot o'tkazilib, qarorni yana bir bor o'ylab ko'rish bo'yicha maslahat berilib, olib qolishga intilishmoqda. Bu esa mazkur sohadagi harakatlarning institutsionallashtirilmaganidan dalolat bermoqda va bu muammoni yechish subyektiv tus olmoqda. Norvegiya tajribasi kabi,

kadrlarni ushlab qolish masalasini mas'ullarning subyektiv harakati bilangina emas balki, anketa-so'rov orqali muammolarni ilmiy-tahliliy o'rganish va ularga malakali yechim topish orqali tizimlashtirish taklif etiladi. Bu esa o'z navbatida, harbiy kadrlarni tayyorlash uchun ketgan vaqt kutiladigan natijaga erishilishiga va harbiy kadrlar tizimida bo'sh ish o'rinlarining me'yorida ko'payib ketmasligiga zamin yaratadi.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, bugungi kunda harbiy kadrlarni tayyorlash jarayoni faqat bilim va kasbiy ko'nikma berish bilan cheklanmaydi. Bo'lajak ofitser har tomonlama yetuk, ma'naviy barqaror, mas'uliyatli va zamonaviy talablarga moslashuvchan bo'lishi zarur. Shuning uchun harbiy kadrlar boshqaruv tizimini doimiy ravishda takomillashtirib borish, xalqaro tajribani o'rganish va uni milliy sharoitga moslashtirish muhim ahamiyatga ega.

Shuningdek, kadrlarni lavozimga tayinlash va xizmatda ushlab qolish masalalariga ham jiddiy e'tibor qaratish lozim. Xorijiy tajribalar shuni ko'rsatadiki, ochiq va adolatli tanlov tizimi, shaffof baholash hamda harbiy xizmatchilarning muammolarini ilmiy asosda o'rganish xizmat samaradorligini oshiradi. Milliy armiyamizda ham ana shunday tizimli yondashuv joriy etilsa, kadrlar barqarorligi ta'minlanadi va tayyorlangan mutaxassislarning salohiyati to'liq namoyon bo'ladi.

Adabiyotlar/Literatura/References:

1. Harbiylikka havas maqsadga aylanishi zarur / Maqola / A.Rahimov, T.Turg'unboyev / Elektron resurs – Rejim kirish: <https://uzhurriyat.uz/2026/01/21/harbiylikka-havas-maqsadga-aylanishi-zarur/>;
2. Elektron resurs – Rejim kirish: <https://zamon.uz/uz-cyrl/2026/01/13/harbiy-talim-va-kadrlar-tayyorlash-tizimini-modernizatsiya-qilish-armiyaning-yangi-qiyofasini-shakllantirishning-asosiy-shartidir---shavkat-mirziyoyev-41574>;
3. Harbiy kadrlarni tayyorlashda nazariya va amaliyot uyg'unligi / Maqola / D. Metinov, S.Kattaxujayev – PEDAGOG RESPUBLIKA ILMIY JURNALI9 –TOM 1–SON/2026-YIL, 52-bet;
4. Harbiy kadrlarni tayyorlashda ilmiy-nazariy yondashuvlar / Maqola / B. Karimov – International scientific journal "Interpretation and researches" Volume 1 issue 5 (51) | ISSN: 2181-4163, 103-104 betlar;
5. Harbiy kadrlar tayyorlash masalasida o'zaro hamkorlik aloqalarini rivojlantirishning pedagogik jihatlari / Maqola / Sh.Zoxidov. Rejim kirish: <https://cyberleninka.ru/article/n/harbiy-kadrlar-tayyorlash-masalasida-o-zaro-hamkorlik-alloqalarini-rivojlantirishning-pedagogik-jihatlari/>;
6. Harbiy-kasbiy tayyorgarlik: Zamonaviy talablar, tendensiyalar, innovatsion yondashuvlar va samaradorlik oshirish / Maqola / S.Isakov. Sh. To'rayev / "PEDAGOGS" international research journal ISSN: 2181-4027, Volume-68, Issue-1, October -2024;
7. Mustaqil ta'lim jarayonida bo'lajak ofitserlarning kasbiy komponentligini shakllantirishni takomillashtirish / Maqola / Z.Alimardonov / O'R Milliy gvardiyasi HT insitutining Axborotnomasi, 2018. № 2 – b. 38–41;
8. Кудрявцев Ю. Подготовка командных кадров к воспитательной деятельности в вузах США, ФРГ и Великобритании –[http://pentagonus.ru/publ/9-1-0-218](http://pentagonus.ru/publ/9-1-0-218;);
9. Examining the roots of turnover intentions in the Royal Norwegian Navy, the role of embeddedness, work–life conflict and predictability / Maqola – Elektron Resurs – Rejim kirish: <https://reference-global.com/download/article/10.2478/jms-2023-0002.pdf>;
10. Elektron resurs: Rejim kirish: <https://uz.wikipedia.org/wiki/Meritokratiya>;
11. Elektron resurs: Rejim kirish: <https://lex.uz/docs/4549998>
12. Elektron resurs – Rejim kirish: <https://zoek.officielebekendmakingen.nl /stcrt-2023-32.html>.

SCIENCEPROBLEMS.UZ

IJTIMOIIY-GUMANITAR FANLARNING DOLZARB MUAMMOLARI

№ 3 (6) – 2026

АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО- ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

“Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari” elektron jurnali 2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan davlat ro'yxatiga olingan.

Muassis: “SCIENCEPROBLEMS TEAM”
mas'uliyati cheklangan jamiyati

Tahririyat manzili:

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog'och ko'chasi, 70/10-uy. Elektron manzil:

scienceproblems.uz@gmail.com

Bog'lanish uchun telefon:

(99) 602-09-84 (telegram).